

UDC: 342.4(045)(575.1)

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMATI KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY JAVOBGARLIGIGA OID HUQUQIY ASOSLARNI TAKOMILLASHTIRISH

**Hoshimxonov Ahror Mo'minovich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti prorektori,

yuridik fanlar nomzodi, dotsent

ORCID: 0000-0003-4372-7173

e-mail: hoshimxonov@tsul.uz

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Hukumat javobgarligiga oid ilmiy-nazariy asoslar to'g'risida fikr yuritilib, huquqshunos olimlarning ushbu yo'nalishdagi mulohaza va tadqiqot natijalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada Hukumat javobgarligiga daxldor bo'lgan xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy amaliyoti qiyosiy-huquqiy jihatdan o'rganilib, tegishli xulosalar ilgari surilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Hukumati konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligiga oid konstitutsiyaviy-huquqiy asoslar tahlili natijasiga ko'ra, ushbu asoslar mexanizmlarini yanada takomillashtirish yuzasidan nazariy va amaliy taklif hamda tavsiyalar ilgari surilgan. Vazirlar Mahkamasi jamiyat hayotida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, o'zi ham ushbu munosabatlarning faol ishtirokchisi sifatida maydonga chiqsa-da, bu kabi munosabatlar Konstitutsiyada belgilangan hukumatning asosiy vakolatlari asosida amalga oshirilganligi sababli ham ularning ba'zilarini biz konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar sifatida baholashimiz mumkin. To'g'ri, hukumatning barcha faoliyat tartibi va uni amalga oshirish mexanizmlari Asosiy qonunda o'z ifodasini topmagan. Biroq bu munosabatlarning eng asosiy va umumiy jihatlari aynan Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan. Hukumatning mas'uliyati va javobgarlik masalalari uning bu kabi munosabatlarda davlat hokimiyatining oliy organlari, jumladan, Prezident va Oliy Majlis bilan o'zaro aloqadorlikda kechganligi tufayli uni biz bemalol konstitutsiyaviy-huquqiy munosabat hamda konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik sifatida tushunamiz.

**Kalit so'zlar:** hukumat, javobgarlik, parlament, prezident, siyosiy javobgarlik, ishonch, votum.

### СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬНОЙ БАЗЫ В ОТНОШЕНИИ КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ПРАВИТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Хошимхонов Ахрор Муминович,**

кандидат юридических наук, доцент, проректор

Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются научно-теоретические основы ответственности правительства, анализируются мнения и результаты исследований ученых-правоведов в этом направлении. Также в статье с сравнительно-правовой точки зрения исследуется конституционно-правовая практика зарубежных стран, относящаяся к ответственности правительства, и формулируются соответствующие выводы. Кроме того, по результатам анализа конституционно-правовых основ конституционно-правовой

ответственности правительства Республики Узбекистан были выдвинуты теоретические и практические предложения и рекомендации по дальнейшему совершенствованию основ этих механизмов. Хотя Кабинет Министров регулирует общественные отношения и является их активным участником, некоторые из них можно оценить как конституционно-правовые отношения в силу того, что такие отношения осуществляются на основе основных полномочий правительства, которые определены в Конституции. Однако порядок всей деятельности правительства и механизмы ее осуществления в Основном законе не определены. Самые основные и общие аспекты этих отношений в Конституции устанавливаются. В связи с тем, что вопросы ответственности государства относятся к высшим органам государственной власти, в том числе к президенту и Олий Мажлису, становится понятной важность конституционно-правовых отношений и конституционно-правовой ответственности.

**Ключевые слова:** правительство, ответственность, парламент, президент, политическая ответственность, доверие, голосование.

## IMPROVEMENT OF THE LEGAL FOUNDATIONS OF THE CONSTITUTIONAL AND LEGAL RESPONSIBILITY OF THE GOVERNMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Hoshimkhonov Ahror Mominovich,**  
Deputy rector of Tashkent State University of Law  
PhD in Law, Associate Professor

**Abstract.** This article discusses the scientific and theoretical foundations of government responsibility and analyzes the opinions and results of research by legal scholars in this direction. The article also examines the constitutional and legal practices of foreign countries that are the responsibility of the government from a comparative legal point of view and draws appropriate conclusions. In addition, based on the results of the analysis of the constitutional and legal foundations of the constitutional and legal responsibility of the government of the Republic of Uzbekistan, theoretical and practical proposals and recommendations were put forward for further improvement of the mechanisms of these foundations. Although the Cabinet of Ministers regulates social relations in the life of the society and is an active participant in these relations, we can evaluate some of them as constitutional-legal relations due to the fact that such relations are carried out on the basis of the main powers of the government defined in the constitution. It is true that the procedure of all the activities of the government and the mechanisms of its implementation are not expressed in the basic law. However, the most basic and general aspects of these relations are established in the constitution. Due to the fact that the issues of responsibility and liability of the government are related to the highest bodies of state power, including the president and the Oliy Majlis, we easily understand it as a constitutional-legal relationship and constitutional-legal responsibility.

**Keywords:** government, responsibility, parliament, president, political responsibility, trust, voting.

### Kirish

Hukumat javobgarligi ijro hokimiyatining markaziy organi sifatida uning o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaganligi yoki u yuritayotgan umumsiyosat maqsadiga muvofiq emasligi natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Hukumat javobgarligining Konstitutsiyada belgilanishi davlat hokimiyatining mustaqil tarmog'i ekanligi sababli ham konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik sifatida qaraladi.

Hukumatning konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligi yo'nalishida xorijiy davlatlar konstitutsiyaviy-huquqiy amaliyotini tahlil qilish orqali tegishli taklif va mulohazalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Vazirlar Mahkamasi jamiyat hayotida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, o'zi ham ushbu munosabatlarning faol ishtirokchisi sifatida maydonga chiqsa-da, bu kabi munosabatlar Konstitutsiyada belgilangan huku-

matning asosiy vakolatlari asosida amalga oshirilganligi sababli ham ularning ba'zilarini biz konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar sifatida baholashimiz mumkin. To'g'ri, hukumatning barcha faoliyat tartibi va uni amalga oshirish mexanizmlari Asosiy qonunda o'z ifodasini topmagan. Biroq bu munosabatlarning eng asosiy va umumiy jihatlari aynan Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan. Hukumatning mas'uliyati va javobgarlik masalalari uning bu kabi munosabatlarda davlat hokimiyatining oliy organlari, jumladan, Prezident va Oliy Majlis bilan o'zaro aloqadorlikda kechganligi tufayli uni biz bimalol konstitutsiyaviy-huquqiy munosabat hamda konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik sifatida tushunamiz.

Hukumat javobgarligi masalasi davlatning boshqaruv shakliga bevosita bog'liqdir. Boshqaruv shakliga ko'ra, prezidentlik respublikalarida hukumatning javobgarligi parlamentar respublikalardagi tartibdan mutlaqo farq qilishi mumkin. Sababi aksariyat hollarda prezidentlik boshqaruvi shaklidagi davlatlarda ijro hokimiyati prezident xohish-irodasiga muvofiq shakllantirilib, ushbu organ tarafidan amalga oshiriladigan siyosat ham aynan davlat rahbarining siyosati sifatida qaraladi. Shu sababli bu davlatlarda hukumatga iste'fo berish orqali uni javobgarlikka tortish ham prezidentning qo'lida bo'ladi. Parlamentar boshqaruv shaklidagi davlatlarda esa yangi shakllangan parlament asosiy ko'pchilik ovoz bilan hukumatni shakllantiradi va bunda hukumatning konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligi ham uni shakllantirgan organ, ya'ni parlament ixtiyoridadir.

### **Material va metodlar**

Tadqiqot jarayonida bir nechta masalalarni yoritishga harakat qilindi: birinchisi – Hukumat javobgarligi tushunchasi; ikkinchisi – xorijiy mamlakatlarda Hukumat javobgarligiga oid asoslar; uchinchisi – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi javobgarligi asoslarini takomillashtirish zaruriyati bormi?

Mazkur savollarga javob tariqasida mualiflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, Hukumat javobgarligining bir qator muhim xususiyatlari alohida ta'kidlandi. Demak, ushbu maqola hukumat javobgarligi asoslarini konseptual, nazariy, konstitutsiyaviy-huquqiy va amaliy tushunishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

### **Tadqiqot natijalari**

Aynan hukumat javobgarligiga oid masalalar V. Kovello, D. Makkalum, M. Pavlova [1], F. Katler [2], S. Koxenlar [3] kabi xorijlik olimlar tomonidan o'rganilgan.

Hukumat javobgarligi to'g'risida mutaxassis tadqiqotchilar turlicha nazariy fikrlarni bildirgan bo'lib, quyida biz ularning ba'zilarini to'g'risida to'xtalib o'tsak. A.Sheyan o'z tadqiqot ishida hukumatning konstitutsiyaviy-huquqiy (konstitutsiyaviy) javobgarligi tushunchasi ostida konstitutsiyaviy-huquqiy sanksiyalarni tashkil etuvchi yuridik majburlov choralari yotadi, hukumat konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarda uni shakllantiruvchi organlar, jumladan, davlat rahbari va parlament oldida javob beradi [4], deb hisoblaydi. Shuningdek, A. Kondrashev konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlikni keng va tor ma'nolarda ifoda etib, keng ma'noda konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik – o'zida ishtirokchilar tomonidan konstitutsiyaviy-huquqiy normalarni saqlamasligi natijasida normativ talablarda belgilangan konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatning buzilishi natijasidagi holatni ifodalab, huquqbuzarga davlat sudloviga tortish yuzasidan qilingan murojaatdir, desa, tor ma'nodagi konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik – tegishli davlat organlarining (ba'zan xalq tomonidan) konstitutsiyaviy huquq subyektlariga muayyan davlat majburlov ta'sir vositasining qo'llanilishi [5] ekanligini ta'kidlaydi. Yuridik ensiklopediyada rus olimi A.I. Cherkosov ishonch (ishonchsizlik) votumiga – konsti-

tutsiyaviy huquqdagi parlamentning (uning quyi palatasining) hukumat faoliyatiga baho to'g'risidagi savoliga uni tasdiqlash (ishonch votumi) yoki tasdiqlamasligi (ishonchsizlik votumi) haqidagi ovoz yo'li orqali qabul qilinadigan qaroridir [6], deb ta'rif beradi.

Yana bir tadqiqotchi A. Nechkin javobgarlik – konstitutsiyaviy huquq normalarida nazarda tutilganidek, huquqiy (konstitutsiyaviy-huquqiy) va huquqiy bo'lmagan (siyosiy) bo'lishi mumkin. Yuridik bo'lmagan siyosiy javobgarlikdan farqli o'laroq, yuridik konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik faqat huquqbuzarlik (konstitutsiyaviy delikt), ya'ni konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar subyekti tomonidan sodir etilgan, konstitutsiyaviy huquq manbalarida nazarda tutilgan qonun talablariga javob bermaydigan aybli harakat yoki harakatsizlik mavjud bo'lganda yuzaga keladi va bu huquq-tartibotga zarar yetkazadi. Bundan tashqari, hokimiyatlarning bo'linishi prinsipiga muvofiq, yuridik javobgarlikka tortish uchun sud organlarining ishtiroki majburiy bo'lib, ular konstitutsiyaviy huquqbuzarlik (konstitutsiyaviy delikt) sodir etilgan yoki yo'qligi, shuningdek, subyektning aybliligini aniqlashi shart [7], deb hisoblaydi. Biz ushbu tadqiqotchining ba'zi fikrlariga qo'shilmaymiz. Chunki hukumatning konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligi Konstitutsiya va maxsus qonunlarda bevosita belgilab qo'yilganligi sababli ham uni odil sudlovni amalga oshiruvchi sud hokimiyatining aralashuvi orqaligina hal etish mumkinligi to'g'risidagi qat'iy qarashi to'g'ri emas.

Rivojlangan demokratik davlatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy amaliyotida ham bir necha marotaba hukumatning iste'foga chiqqanini kuzatganmiz. Biroq ularning birortasida ham sudlov jarayoni orqali qaror qabul qilinganiga guvoh bo'lmadik. Hukumat konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligining boshqa turdagi javobgarliklardan asosiy farq qiluvchi xususiyati ham shunda, bizningcha. Biz ushbu paragrafda keltiradigan xorij amaliyotiga oid barcha misollar, shuningdek,

milliy qonunchiligimiz tahlili ham buni isbotlaydi.

Rus olimi A. Chepus aynan MDH davlatlari qonunchiligi tahlili asosida hukumat javobgarligi to'g'risida fikr bildirar ekan, yuridik javobgarlikni ijobiy, perspektiv (kelgusida sodir bo'ladigan faoliyat) va salbiy retrospektiv (amalga oshirib bo'lingan faoliyat) turlarga bo'lib, MDH davlatlari konstitutsiyalari va qonunchiligida hukumatning parlament oldidagi ijobiy va salbiy javobgarligiga doir mezon va asoslarning mavjud emasligi hukumatga nisbatan javobgarlik tartiblarini qo'llashda qiyinchilik tug'diradi, deb hisoblaydi [8].

Shuningdek, mahalliy mutaxassislari-mizdan X. Turdiyev o'z tadqiqot ishida hukumat javobgarligi konstitutsiyaviy-huquqiy va siyosiy turlarga bo'linishini ta'kidlab, hukumat konstitutsiyaviy normalarning buzilishi (konstitutsiyaviy deliktlar) oqibatida konstitutsiyaviy-huquqiy va huquqiy (jinoiy, ma'muriy) javobgar hamda davlat hokimiyatidagi maqomini inobatga olgan holda, parlament va davlat boshlig'i oldida siyosiy javobgar, deb hisoblaydi [9].

### **Tadqiqot natijalari va tahlili**

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchiligini tahlil qilar ekanmiz, hukumatga nisbatan javobgarlik qo'llash yuzasidan huquqiy asoslarning tizimli tartibda belgilanmaganligi va ishonchsizlik votumini bildirishga doir mezonlarning mavjud emasligi yaqqol ko'rinadi.

Endi aynan O'zbekiston Respublikasi hukumatining javobgarligiga doir huquqiy asoslar yuzasidan fikr yuritsak. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 98-moddasi, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi reglamenti to'g'risida"gi Qonuni 22-moddasida "O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda, Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy



sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi", deb mustahkamlangan.

Biroq qanday holatlar ishonchsizlik to'g'risidagi masalani kiritish uchun asos bo'lishi qonunda mustahkamlanmagan. Bosh vazir va Qonunchilik palatasi o'rtasidagi ziddiyat nimadan iborat bo'lishi mumkinligi qonunchilikda o'z ifodasini topmaganligi ham nazariy, ham amaliy jihatdan noaniqlikni vujudga keltiradi. Ishonchsizlik votumini bildirishga oid tartib Asosiy qonunda bevosita o'z ifodasini topishi kerak, sababi ushbu jarayon konstitutsiyaviy-huquqiy jarayon bo'lganligi, mamlakat siyosiy hayotida muhim masala ekanligi tufayli mazkur jarayonlarning har bir elementi bevosita konstitutsiyada o'z ifodasini topishi lozim.

Xorij amaliyotida, jumladan, Qozog'iston Konstitutsiyasining 53-moddasida "Hukumatning respublika byudjeti ijrosi yuzasidan hisobotini Parlament tomonidan tasdiqlamaslik Parlament tomonidan hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirishni anglatadi [9]", deb belgilangan bo'lsa, Fransiya Konstitutsiyasining 50-moddasida "Milliy Assambleya hukumatga nisbatan "tanbeh qarori" qabul qilsa yoki uning umumsiyosiy dasturi yoki deklaratsiyasini qabul qilmasa, Premyer-ministr Prezidentga hukumat iste'fosi to'g'risidagi bayonotni yuborishga majbur bo'lishi [10]", Litva Konstitutsiyasining 61-moddasiga ko'ra, Seym Bosh vazir yoki vazirning so'rovga bergan javobini muhokama qilib, javobni qoniqarsiz deb topishi va Seym a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'p ovozi bilan Bosh vazir yoki vazirga nisbatan ishonchsizlik bildirishi mumkinligi mustahkamlangan. Mazkur misollardan ko'rinib turibdiki, hukumatga nisbatan ishonchsizlik bildirishning shartlari va asoslari

to'g'ridan-to'g'ri asosiy qonun matnida ifodalanmoqda.

Ta'kidlanganidek, ijro hokimiyatining konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligi uning davlat hokimiyatining qaysi organi oldida hisobdorligi prinsipi va uni kim shakllantirganligidan kelib chiqadi.

Odatda, parlamentar davlatlarda hukumatni parlament shakllantirsa, prezidentlik boshqaruvi shaklidagi davlatlarda ijro hokimiyatini shakllantirish davlat rahbarining zimmasidagi vakolat hisoblanadi. Bu to'g'rida mutaxassis G.Divayeva fikr bildirib, parlamentar respublikalarga ijro hokimiyati qonunchilik hokimiyatining davomi ekanligi xos xususiyatdir; Parlament, to'g'rirog'i, parlament ko'pchiligi hukumatni shakllantiradi, uning rahbarini saylaydi va hukumatni tarqatib yuborish huquqiga ega; hukumat parlament ko'pchiligining yoqlashini yo'qotsa, o'z zimmasidan vakolatlarini soqit qiladi; ...shunday qilib, qonunchilik va ijro hokimiyatining bo'linishi pozitsiyasidan kelib chiqqan holda, fikr bildirish mumkinki, parlamentar respublikalarda prezidentlik respublikalariga qaraganda parlament va hukumat bir-biriga bog'liq, lekin bu qaramlik hokimiyatlar bo'linishi prinsipi nuqtayi nazaridan to'liq joizdir; buning natijasida parlamentar respublikalarda parlament va hukumat o'rtasida konflikt ehtimoli minimum darajaga keltirilgan [11], deydi.

Milliy qonunchiligimizga ko'ra, O'zbekistonda hukumatni shakllantirish vakolati Oliy Majlis bilan birga prezidentning ham vakolatidir. Bu huquqiy tartib "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasida mustahkamlangan. Qolaversa, Vazirlar Mahkamasining o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgarligi ham Konstitutsiyaning 98-moddasida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisning konstitutsiya va qonunchilikda belgilangan asosiy vakolatlari doirasi mamlakatimizni to'la asosda

prezidentlik yoki parlamentar boshqaruv shaklidagi davlat deb hisoblashga imkon bermaydi. Nazariy jihatdan davlatni u yoki bu boshqaruv shaklidagi davlat sifatida e'tirof etish uchun ijro hokimiyati kimning qo'li-da ekanligi va uni kim shakllantirishi hamda iste'foga chiqara olishi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Milliy qonunchiligimiz tahlili ijro hokimiyatini shakllantirish, hisobotini eshitish va uni iste'foga chiqarishga taalluqli vakolatlar-ni aynan bir organga emas, balki aynan parlament va mamlakat prezidentiga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli ham biz O'zbekiston Respublikasini nazariy-huquqiy jihatdan prezidentlik yoki parlamentar boshqaruv shaklidagi davlat deb emas, balki parlamentar-prezidentlik boshqaruvi shakli-dagi davlatlar sirasiga qo'shsak to'g'ri bo'la-di. Bu yerda parlamentning o'rnini birinchi keltirishimizga bir qancha sabablar mavjud. Bular hukumatni aynan parlament quyi palatasiga bo'lib o'tgan saylovlarda g'olib chiqqan partiya yoki ko'p ovozga ega bo'lgan partiyalar tomonidan taqdim etilishi, Bosh vazirning hisobot va ma'ruzalari parlament tomonidan eshutilishi, Qonunchilik palatasining hukumat a'zosi iste'fosini so'rab, prezidentga taklif kiritishi, prezidentga hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish taklifi bilan chiqishi va shu kabi boshqa vakolatlardir.

Bu huquqiy normalar saylangan vakillik organi tomonidan hukumat faoliyatini mutlaq nazorat qilishga yetmasa-da, uni doimiy ravishda mas'uliyat hissi ostida ushlab turishni ta'minlaydi. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlar natijasida xalq vakillik organi sifatida parlamentning o'rne va roli tobora ortib bormoqda. Shuningdek, aksariyat markaziy davlat organlari singari ijro hokimiyati markaziy organining parlament oldidagi hisobdorligiga doir ko'plab yangicha talablar 2019-yilning dekabr oyida qabul qilingan yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunda ham o'z aksini topdi.

Asosiy qonunimizda hukumatga nisbatan parlament tomonidan ishonchsizlik votumi bildirish mezonlari, sabablarini belgilab beruvchi huquqiy asoslarni takomillashtirish orqali hukumatning oliy vakillik organi oldidagi mas'uliyatini yana bir karra oshirishga erishish mumkin. Sababi hukumatga nisbatan ishonchsizlik masalasi mavhum bo'lgan holatdan farqli ravishda, aynan uning aniq faoliyati natijasi yuzasidan parlament quyi palatasi tomonidan ishonchsizlik masalasi qo'yilishi imkonining mavjud bo'lishi ijro hokimiyatining javobgarlik hissi va mas'uliyatini orttiradi. Konstitutsiya o'z normalarida ko'plab ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini belgilamaydi. Bunga Konstitutsiya matnining hajmi ham imkon bermaydi. Biroq biz hozirda muhokama qilayotgan holat Konstitutsiyaning 11-moddasida ko'rsatilgan davlat hokimiyatining mustaqil tarmog'i bo'lgan ijro hokimiyati javobgarligi masalasi bo'lganligi tufayli ham uning huquqiy asoslari va mezonlari aynan ushbu hujjat matnida aks etishi ham nazariy, ham amaliy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, aytish o'rinliki, asosiy qonun mavhum va noaniq munosabatni tartibga solmaydi. Yana uning matni qaysidir jarayonni amalga oshirish tartibisiz e'lon qilinishining o'zi bilangina cheklanmasligi kerak. Chunki bunday masalalarda Konstitutsiyani to'ldiruvchi boshqa huquqiy asos mavjud emas. To'g'ri, hukumat faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunning mavjudligi Konstitutsiyadagi qoidalarni to'ldirib, ularning ijro etilish jarayonlarini detallashtiradi. Biroq bu jarayonning asosiy mezonlari asosiy hujjat matnida bo'lsagina maxsus qonun uning ijro mexanizmini ifodalay olishi huquqiy jihatdan to'g'ridir.

Jamiyatda umumiy tusga ega bo'lgan qonunlar ko'pligi, shuningdek, ularni amalga oshirishning muayyan mexanizmsiz tartibga solinishi kabi holatlarni bartaraf etish maqsa-

didida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustda "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5505-sonli Farmoni qabul qilinib, aynan ushbu hujjat bilan tasdiqlangan konsepsiyada "to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi qonunlarni qabul qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish" to'g'risidagi muhim qoida mustahkamlandi [12]. Darhaqiqat, qonun ijtimoiy munosabatni tartibga solish mexanizmi bo'lgandagina tom ma'noda ijro etiladi va shu jihati bilan ham u ahamiyatlidir.

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasida Bosh vazirning vakolatlari keltirilgan bo'lib, unda Vazirlar Mahkamasining o'tgan yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va navbatdagi yil uchun asosiy ustuvorliklar to'g'risidagi har yilgi ma'ruzasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga taqdim etishi, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bilan hamkorligi belgilangan 38-moddasida, Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan ma'ruzalar taqdim etishi, shuningdek, Bosh vazir O'zbekiston Respublikasi Hukumatini a'zolari bilan birgalikda har chorakda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasidan kelib chiqadigan, tegishli yilga mo'ljallangan davlat dasturi bajarilishining borishi to'g'risida hisobot taqdim etishi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari zarur bo'lgan hollarda, o'z majlislarida Bosh vazirning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ayrim dolzarb masalalari yuzasidan hisobotini qonunga muvofiq parlament so'rovi tartibida eshittishi mumkinligi mustahkamlangan.

### **Xulosalar**

Mazkur masalalar jamiyat va davlat hayotida o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu

orqali hukumatning mamlakat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishida amalga oshirayotgan chora-tadbirlari natijadorligi tahlil qilinadi. Shu sababli aynan mana shu ma'ruza va hisobotlarga nisbatan parlament tomonidan e'tiroz bo'lsa va mazkur hisobotni u qabul qilmasa, parlament quyi palatasining hukumat rahbari – Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish masalasini kiritish amaliyotini qonunchilikda aks ettirish zarur, deb hisoblaymiz.

Ta'kidlash lozimki, hukumatning konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligi uning faqatgina parlament bilan o'zaro munosabatlarda vujudga keluvchi nizoli vaziyatlar, ya'ni konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar sababligina vujudga kelmaydi. Hukumat keng miqyosdagi umumiy vakolatlarga ega bo'lgan va davlat siyosatini amalga oshiradigan hokimiyat tarmog'i hamdir.

Shu bois hukumatga nisbatan javobgarlik siyosiy motiv va maqsadlar sababli ham bo'lishi mumkin. A.Sheyana bu masala yuzasidan fikr bildirib, Rossiyada davlat rahbari hukumatning iste'fosini e'lon qilgan ekan, o'zining bu qarorini har doim ham asoslayvermaydi, bu, o'z navbatida, hukumatning huquqbuzarlik faktini ma'lum qilishni istisno etadi. Ko'pincha Prezidentning bunday harakati siyosiy maqsadga muvofiqlik yuzasidan baholanib, bu hukumatning biron-bir yuridik xato qilganini anglatmaydi. Xuddi shunday parlament tomonidan hukumatga nisbatan bildirilgan ishonchsizlik ham hukumatning samarasiz faoliyati natijasi sifatida qaralib, qaysidir huquqbuzarlikning tarkibini bermaydi. M. Toporkova ham hukumatning siyosiy javobgarligi yuzasidan fikr yuritib, RF hukumati faoliyatiga oid ijobiy natijaning mavjud emasligi, RF Federatsiya Kengashi Davlat Dumasi yoki RF Prezidenti tomonidan hukumat faoliyatining salbiy baholanishi hukumatning siyosiy javobgarligi kelib chiqishiga asos bo'ladi [13], deb hisoblaydi.

Biz ham mutaxassislarning mazkur fikrlarini to'la qo'llab-quvvatlaymiz. Zero, huku-

matning u yoki bu fakt asosidagi konstitutsiyaviy-huquqiy normalarni buzishi emas, balki uning umummilliy siyosatdagi oqsashi, o'zining vazifa va vakolatlarini lozim darajada bajara olmasligining o'zi ham uning iste'fosini vujudga keltiruvchi asos sifatida qaralishi mumkin, deb hisoblaymiz. Shu sababli ham parlament hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirishda konstitutsiyaviy huquqbuzarlik faktini emas, umumdavlat siyosiy maqsadlariga erishishdagi hukumat faoliyatining o'rni va rolini ko'rsatishi bilan kifoyalanishining o'zini yetarli asos deb qarashi mumkin. Aynan mana shu nuqtada konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarlik siyosiy javobgarlik sifatida yaqqol namoyon bo'lishi mumkin.

Shunga ko'ra, Oliy Majlis tomonidan Vazirlar Mahkamasining yillik ma'ruza-si yuzasidan va davlat dasturi ijrosi holati bo'yicha faoliyatidan qoniqmaslikni siyosiy motiv sifatida qarash mumkin. Sababi hukumatning umumiy faoliyati natijasida mam-

lakatda fuqarolarning yakdillik, hamjihatlik va farovonlikda hayot kechirishi ta'minlanib, bu, o'z navbatida, siyosiy barqarorlikni kafolatlaydi. Demak, bunday sharoitda hukumatga nisbatan parlament tomonidan bildiriladigan ishonchsizlik votumi ijro hokimiyatining faoliyati siyosiy jihatdan maqsadga nomuvofiqligi bilan izohlanadi. Siyosiy motiv va maqsadlarni qonunchilikda ifoda etib bo'lmaganligi sababli ham biz bu javobgarlikni yuridik javobgarlik sifatida qabul qilamiz. Bu, aslida, o'z mazmuniga ko'ra siyosiy javobgarlikdir. Lekin har qanday holatda ham javobgarlikka tortish uchun huquqiy asos zarur. Hukumatning faoliyati davlat rahbari va Oliy Majlis tomonidan amalga oshirilayotgan umumdavlat siyosatiga nomuvofiq kelganda, uning iste'fosini talab qilishda ishonchsizlik votumi tarzidagi huquqiy ta'sir chorasini qo'llash bo'yicha jarayonni boshlash uchun, avvalo, uni qonunda muayyan bir ko'rinishda ifodalash lozim.

## REFERENCES

1. Covello V., McCallum D.B., Pavlova M.T. Effective risk communication: the role and responsibility of government and nongovernment organizations. *Springer Science, Business Media*, 2012, vol. 4.
2. Cutler F. Government Responsibility and Electoral Accountability in Federations. *Publius: The Journal of Federalism*, 2004, Spring, vol. 34, iss. 2, pp. 19–38. DOI: 10.1093/oxfordjournals.pubjof.a005028/.
3. Cohen S. A strategic framework for devolving responsibility and functions from government to the private sector. *Administration review*, 2001, pp. 432–440.
4. Sheyan A.N. Institut pravitel'svennoy otvetstvennosti v Rossii [Institute of Government Responsibility in Russia]. Abstract of PhD dissertation. Volgograd, 2007, pp. 8–9.
5. Kondrashev A.A. Teoriya konstitutsionno-pravovoy otvetstvennosti v Rossiyskoy Federatsii [The theory of constitutional and legal responsibility in the Russian Federation]. Abstract of Doctoral dissertation. Moscow, 2011, 12 p.
6. Yuridicheskaya entsiklopediya [Legal Encyclopedia]. Ed. B.N. Topornin. Moscow, 2001, p. 153.
7. Nechkin A.V. Konstitutsionno-pravovoy status pravitel'stv stran sodruzhestva nezavisimyykh gosudarstv (sravnitel'noye issledovaniye) [The constitutional and legal status of the governments of the Commonwealth of Independent States (comparative study)]. Abstract of PhD dissertation. Yekaterinburg, 2015, 16 p.



8. Chepus A. Parlamentskaya otvetstvennost` pravitel'stva: konstitutsionno-pravovoye i sravnitel'noye issledovaniye [Parliamentary Responsibility of the Government: Constitutional-Legal and Comparative Research]. Abstract of Doctoral dissertation. Penza, 2020, 34 p.
9. Turdiyev X. Parlament va hukumat munosabatlarining tashkiliy-huquqiy mexanizmini takomillashtirish masalalari [Issues of improving the organizational and legal mechanism of parliamentary and government relations]. Abstract of PhD dissertation. Tashkent, 2021, 15 p. Available at: [https://www.akorda.kz/ru/official\\_documents/constitution/](https://www.akorda.kz/ru/official_documents/constitution/).
10. Divayeva G.Yu. Institut parlamentskogo kontrolya: konstitutsionno-pravovoy aspekt [Institute of Parliamentary Control: constitutional and legal aspect]. Abstract of PhD thesis. Kazan, 2004, p. 13.
11. Toporkova M.K. Konstitutsionno-pravovoy status chlenov Pravitelstva Rossiyskoy Federatsii [Constitutional and legal status of members of the Government of the Russian Federation]. Abstract of PhD dissertation. Moscow, 2004, 24 p.
12. Hoschimkhanov A. Rechtliche Aspekte des Status und der Stellung des Premierministers im Ausland: Eine vergleichende rechtliche Analyse [Legal Aspects of the Prime Minister's Status and Position Abroad: A Comparative Legal Analysis]. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 2022, vol. 2, iss. 1.4, Legal sciences, pp. 113–118. ISSN 2749-0866 DOI: 10.5281/zenodo.6458119/. Available at: <https://berlinstudies.de/index.php/berlinstudies/article/download/362/350/>.
13. Constitution of the Republic of Lithuania. Available at: [https://www.lrs.lt/home/Konstitucija/Konstitucija\\_RU.htm/](https://www.lrs.lt/home/Konstitucija/Konstitucija_RU.htm/).
14. Hoshimkhonov A.M. Mechanisms for ensuring the powers of the Cabinet of Ministers. *Journal of Law Research*, 2022, vol. 7, iss. 4, pp. 5–11. DOI: 10.5281/zenodo.6545054/. Available at: <https://www.tadqiqot.uz/index.php/law/article/download/4572/4331/>.
15. Strelnikov A.O. Responsibility of the Government to the Parliament in the Russian Federation under Constitutional Law. *Actual Problems of Russian Law*, 2018, no. (1), pp. 35–40. DOI: 10.17803/1994-1471.2018.86.1.035-040/.

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

4 / 2022

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,  
y.f.d., dotsent

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ikrom Ergashev**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha  
falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

**Mas'ul muharrir:** D. Xudoynazarov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, Y. Yarmolik,

F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

**Musahhih:** M. Patillayeva

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Web-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**E-mail:** [tn.tdyu@mail.ru](mailto:tn.tdyu@mail.ru)

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 30.08.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 16,50 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 97.

TDYU tipografiyasida chop etildi.